

## 2019-yilning yanvar-mart oylarida O'zbekiston Respublikasining sanoat ishlab chiqarishi

### RAQAMLAR:

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, 2019-yilning yanvar-mart oylarida respublika korxonalari tomonidan 67,4 trln.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksi\* 106,8 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – 4,8% ga, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoat - 7,6 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash - 5,1 % ga va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish – 9,4 % ga o'sishi hisoblanadi.

67,4 trln.so'm  
sanoat ishlab  
chiqarish hajmi

106,8 %  
fizik hajm  
indeksi


19,2 trln.so'm  
iste'mol tovarlari  
ishlab chiqarish

118,3 %  
o'sish sur'ati

28,5 %  
iste'mol tovarlarining  
jami sanoat ishlab  
chiqarish hajmidagi  
ulushi


27,3 %  
sanoat ishlab  
chiqarishda kichik  
biznesning ulushi

### 2019-yilning yanvar-mart oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi



\* Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

## 2019-yilning yanvar-mart oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlarini sanoat ishlab chiqarishning o'sishiga qo'shgan hissasi




### Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2019-yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlari hajmi 9,0 trln.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 13,4 % ni tashkil etdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan tabiiy gaz qazib olish 4,1 % ga, va shag'al – 2,0 m. ga oshdi. Shu bilan birga, ko'mir qazib olish 25,6 % ga, neft - 6,4 % ga, gaz kondensati - 2,0 % ga, chaqiq tosh - 33,1 % ga pasaygan.



**Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

2018-yil yanvar-martda ishlab chiqarilgan	Sanoati mahsulotlari	2019-yil yanvar- martda ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, %
	<b>Ko'mir, ming t.</b>		
1087,0		809,0	74,4 ↓
	<b>Neft, ming t.</b>		
186,5		174,7	93,6 ↓
	<b>Tabiiy gaz, mln.kub.m.</b>		
14711,8		15310,3	104,1 ↑
	<b>Gaz kondensati, ming t.</b>		
534,5		523,7	98,0 ↓
	<b>Chaqiq tosh, ming t.</b>		
239,4		160,3	66,9 ↓
	<b>Shag`al, ming t.</b>		
63,9		129,1	2,0 m. ↑

## Tabiiy gaz qazib olish, mlrd. kub. m



## Ko'mir qazib olish, ming. t



## Neft qazib olish (sh.j.gaz kondensati), ming. t




### Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).

2019-yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 52,4 trln.so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 77,8 % ini tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmog'ining ulushi 1,2 % ni (2018-yil yanvar-mart oylarida - 1,4 %), o'rta-yuqori texnologiyali - 26,9 % (26,6 %), o'rta-quyi texnologiyali - 38,1 % (33,7 %) va quyi texnologiyali - 33,8 % (38,3 %) tashkil etdi.

### Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi



Jami sanoat tarkibida mashina va uskunalarni ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, treylerlar, yarim pritseplar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasi - 17,3 % (2018-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi o'sishi 23,0 % ga), metallurgiya sanoatining ulushi - 18,7 % (5,9 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarish - 13,2 % (2,7 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarish - 11,0 % (7,9 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarish - 7,7 % (1,5 %) ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, ishlab chiqarish sanoatida o'tgan yilning shu davriga nisbatan solishtirganda yuk avtomobillari - 2,7 m., yengil avtomobillar - 1,5 m., avtomobil dvigatellari - 1,6 m., avtobuslar - 2,9 m., yurguzuvchi g'ildiraklar, ularning qismlari va jihozlari - 1,6 m., radiatorlar, shovqin so'ndirgichlar va chiqarish quvurlari, ulovchi mexanizmlar, rul chambaraklari, rul kolonkalari va rul mexanizmlarining karterlari va ularning qismlari - 1,6 m. ga oshdi.

Texnologik jihozlarni kapital ta'mirlash ishlari kimyo korxonalarini ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish hajmini oshirish imkonini berib, kaliy xlorid (2018-yil yanvar-mart oylariga nisbatan 113,7 %), karbamid (121,6 %), ammoniy sulfat (130,4 %), ammoniy nitrat (120,2 %), akril va vinilmpolimerlari asosidagi bo'yoq va laklar (122,4 %), gerbitsidlar (119,0 %), kaustik soda (177,1 %), boshqa azotli o'g'itlar va ularning aralashmalari (197,6 %.), azot, fosfor va kaliyli mineral o'g'itlar (164,5 %) ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2018-yil yanvar-martda ishlab chiqarilgan	Sanoati mahsulotlari	2019-yil yanvar- martda ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, %
<b>Yengil avtomobillar, dona</b>			
39313		59505	151,4 ↑
<b>Yuk avtomobillari, dona</b>			
487		1323	2,7 m. ↑
<b>Avtobuslar, dona</b>			
137		398	2,9 m. ↑
<b>Avtomobil dvigatellari, dona</b>			
30403		48512	159,6 ↑
<b>Paxta tolasi, ming t.</b>			
365,7		258,0	70,6 ↓
<b>O'simlik yog'i (tozalangan), ming t.</b>			
68,0		55,8	82,0 ↓

2018-yil yanvar- martda ishlab chiqarilgan	Sanoati mahsulotlari	2019-yil yanvar- martda ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, %
<b>Tamaki mahsulotlari, mln. dona</b>			
2394		2346	98,0 ↓
<b>Avtomobil benzini, ming t.</b>			
309,9		244,8	79,0 ↓
<b>Dizel yoqilg'isi, ming t.</b>			
291,2		267,4	91,8 ↓
<b>Portlandsement, ming t.</b>			
1725,6		1999,8	115,9 ↑
<b>Akril va vinil polimerlari asosidagi bo'yoqlar va laklar, t.</b>			
2434,9		2979,3	122,4 ↑
<b>Traktorlar, dona</b>			
432		101	23,4 ↓



### Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 5,4 trln. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 8,0 % ni) tashkil etdi.

2019-yilning yanvar-mart oylarida sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 5,5 % ga oshganligi kuzatildi.

### Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2018-yil yanvar-martda ishlab chiqarilgan	Sanoati mahsulotlari	2019-yil yanvar- martda ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, %
---	----------------------	--	-------------------

#### Elektroenergiya, mln.kVt/s

16433,2



17402,6

105,9



#### Issiqlik energiyasi, ming Gkal

10322,2



10017,5

97,0



### Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalaridan tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 569,7 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,8 % ni) tashkil etdi.



O'tgan yilning mos davriga nisbatan tarkibida alyuminiy bo'lgan ikkilamchi xom ashyoni – 2,4 martaga, tarkibida mis bo'lgan ikkilamchi xom ashyoni – 3,6 martaga, axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar – 2,1 martaga, suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash xizmatlari – 19,5 % ga, oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlarning – 54,2 % ga, xavfli bo'lmagan chiqindilarni yig'ish xizmatlari – 66,7 % ga oshganligi kuzatildi.

### Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalaridan tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2018-yil yanvar-martda ishlab chiqarilgan	Sanoati mahsulotlari	2019-yil yanvar- martda ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, %
---	----------------------	--	-------------------

#### Tarkibida qora metallar bo'lgan ikkilamchi xom ashyo, ming tonna

87,6



59,1

67,4



#### Tarkibida alyuminiy bo'lgan ikkilamchi xom ashyo, tonna

785,0



1860,0

2,4 p.



#### Oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd. so'm

33,0



50,8


154,2



### Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 19,2 trln.so'mni tashkil etdi va 2018-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 18,3 % ga o'sishni ta'minladi, jami sanoatdagi ulushi esa 28,5 % ni tashkil etdi.

### 2019-yilning yanvar-mart oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibi va o'sishi sur'ati



2018-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan iste'mol tovarlari tarkibida nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 66,8 % dan 2019-yilning yanvar-mart oylarida 69,0 % ga oshishi kuzatilmoqda.


Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida sharob va aroq mahsulotlari va pivo 7,7 % ni (2018-yil yanvar-mart oylarida 9,3 %) tashkil etdi.

### Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining ishlab chiqarilishi

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 24,6 trln. so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi.

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 36,5 % ni tashkil etdi.


### Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining sanoatning umumiy hajmidagi ulushi, %.



-  Xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar
-  Respublikaning boshqa korxonalari

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarning umumiy hajmida tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarining ulushi - 22,1 %, ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari ulushi - 77,8 % ni tashkil etdi.


Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining sanoatning umumiy hajmidagi ulushi, %



**Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi.**

Respublika sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Toshkent viloyati (respublika sanoat ishlab chiqarish hajmning 15,9 %), Toshkent shahri (14,6 %), Navoiy (14,0 %), Andijon (10,6 %), Qashqadaryo (6,8 %) va Farg'ona (6,1 %) viloyatlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

2019-yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksi 2018-yil yanvar- mart oylariga nisbatan %



Hududlarning ishlab chiqarish salohiyatini oshirish bo'yicha amalga oshirilayotgan izchil chora-tadbirlar natijasida, Andijon (2018-yil yanvar-mart oylariga nisbatan 119,2 %), Samarqand (117,0 %), Xorazm (108,8 %), Toshkent (108,2 %), Namangan (105,7 %) va Farg'ona (105,5 %) viloyatlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlari sezilarli darajada fizik hajm indeksi oshishiga imkon berdi.

Shu bilan birga, Andijon (2018-yil yanvar-mart oylariga nisbatan 154,3 %), Xorazm (118,9 %), Sirdaryo (112,9 %), Surxondaryo (109,2 %) va Farg'ona (109,0 %) viloyatlarida iste'mol tovarlarini ishlab chiqarish sezilarli darajada oshdi.


Shuningdek, iste'mol tovarlari hajmining eng katta qismi Andijon (iste'mol tovarlari hajmida 29,2 %), Toshkent shahar (18,4 %), Samarqand (8,2 %) va

Toshkent (8,0 %) viloyatlarida ishlab chiqarildi.



## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT STATISTIKA QO'MITASI


### 2019-yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha istemol mollarning o'sish sur'atlari 2018-yil yanvar- mart oylariga nisbatan %



Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanish tahlili Navoiy viloyatida (9594,3 ming so'm), Toshkent shahrida (3919,7 ming so'm), Toshkent (3702,0 ming so'm) va Andijon (2328,7 ming so'm) viloyatlarida o'rtacha respublika darajasi ko'rsatkichidan (2023,7 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Respublika bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol tovarlari ishlab chiqarilishi 576,7 ming so'm bo'lgani holda Andijon viloyatida - 1826,6 ming so'mni, Toshkent shahrida - 1403,9 ming so'mni, Xorazm viloyatida - 564,6 ming so'mni, Sirdaryo viloyatida 556,9 ming so'mni, Navoiy viloyatida - 577,6 ming so'mni va Toshkent viloyatida 530,0 ming so'mni tashkil etdi.

2019-yil yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish va istemol mollarining o'sishi 2018-yil yanvar- mart oylariga nisbatan %




### Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan 18,4 trln. so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi.

Hisobot davrida kichik korxonalarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 27,3 % ni tashkil etdi.

2019-yilning yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha yirik korxonalar va kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, %



Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Toshkent shahrida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 68,3 %), Namangan (63,3 %), Jizzax (50,5 %), Surxondaryo (45,5 %), Samarqand (43,1 %), Farg'ona (34,3 %) va Sirdaryo (34,0 %) va viloyatlarida kuzatildi.

Shu bilan birga, eng kichkina ulush Navoiy viloyatida (9,9 %), Qashqadaryo (15,1 %), Qoraqalpog'iston Respublikasida (16,9 %), Andijon (17,2 %) va Toshkent (17,8 %) viloyatlarida kuzatildi.

## Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda Respublikada 62,4 mingta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 14,1 mingtasi (mavjud korxonalar umumiy sonining 22,6 %) Toshkent shahriga, 6,9 mingtasi (11,0 %) Farg'ona viloyatiga, 6,3 mingtasi (10,1 %) - Toshkent viloyatiga to'g'ri kelmoqda.


### Faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni, birlik

(2019-yil 1 aprel holatiga)



2019-yil yanvar-mart oylarida Respublikada 6455 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, ularning 52,4 foizi Toshkent shahri, Buxoro, Toshkent, Samarqand va Farg'ona viloyatlariga to'g'ri keladi.

**Yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni, birlik**  
(2019-yil 1 aprel holatiga)



### Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining amalga oshirilishi

Respublika sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining rivojlanishiga tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining amalga oshirilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi, mazkur dastur doirasida kiritilgan 447 ta loyiha bo'yicha 3,3 trln.so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarilgan bo'lib, 108,8 mln.AQSH dollari miqdorida mahalliyashtirilgan mahsulotlar eksport qilindi va 1071 ta yangi ish o'rinlari yaratildi.

O'tgan yilning mos davri bilan taqqoslaganda 2019 yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan ish o'rinlari soni 2,7 martaga oshdi. Shu bilan birga, 2018 yil yanvar-martga nisbatan mahalliyashtirilgan mahsulotlarni ishlab chiqarish va eksport hajmi pasayishi kuzatildi.

### Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining asosiy ko'rsatkichlari

(yanvar-mart oylari uchun)

	2018 yil	2019 yil
Loyihalar soni, birlik	619	447
Korxonalar soni, birlik	262	184
Ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm	4563,3	3294,8
Eksportga qilingan mahalliyashtirilgan mahsulot hajmi, mln. AQSH doll	135,0	108,8
Yaratilgan yangi ish o'rinlari, birlik	399	1071

Sanoat statistikasi boshqarmasi

Aloqa telefoni: (71) 230-80-46